

IJTIMOY TARMOQLARDA KITOBXONLIK TARG'IBOTI

Xalikova Muxabbat Akbar qizi

TDYU ARM axborot texnologiyalari bo'yicha yetakchi mutaxassis.

Abdujalilova Durdona Alisher qizi

TDYU ARM Bibliograf.<https://doi.org/10.5281/zenodo.11231920>**Annotatsiya.**

Bir kitobxon atrofida gilarini ham o'zining ilg'or tashabbuslari va harakati bilan o'quvchidan kitobxonga aylantirishi mumkin. Buni bugungi kundagi "Kitob bloggerlari" isbotlashyapti. Ular ijtimoiy tarmoqlarda insonlarga ilm nurlarini tarqatishmoqda. Yoshlarni kutubxonalarga jalb etishning, kitobxonlikni targ'ib qilishning bir qancha zamonaviy usullaridan foydalanishmoqda. Ushbu maqolada shunday bloggerlarning ishlash tarziga biroz e'tibor qaratildi.

Abstract.

A reader can turn people around him from an ordinary reader into a reader with his progressive initiatives and actions. Today's "Book bloggers" prove it. They are spreading the light of knowledge to people on social networks. They are using a number of modern methods of attracting young people to libraries and promoting reading. In this article, some attention was paid to the way such bloggers work.

Kalit so'zlar: Kitobxon, kitobxonlik, ijtimoiy tarmoqlar, kitob bloggerlari, kitobxon guruhlar, kitobxonlik marafonlari.

Keywords: Book reader, reading, social networks, book bloggers, reading groups, reading marathons.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "2020 — 2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash" to'g'risidagi qarori asosida Respublikamiz hududida kitobxonlikka e'tibor bir muncha kuchaydi. Nashriyotlar tomonidan ko'plab kitoblar nashr qilina boshladi. Milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalari nashr qilina boshladi. Aholining kitobxonlik darajasi, kitobga bo'lgan qiziqishlari tizimli o'rganilmoqda.

Kitob savdosi jadal rivojlanmoqda, ayniqsa kitoblarni onlayn tarzda xarid qilish imkoniyati yurtimizning chekka viloyatlaridagi qishloq va ovullarga ham kitoblarni yetib borishini ta'minlamoqda. Yoshlarimizda kitoblarni elektron va audio shaklda ham mutolaa qilish ko'nikmalari shakllanmoqda. An'anaviy tarzda o'tkazib kelayotgan yosh kitobxon loyihasi ham, yoshlarni o'z atrofiga qamrab olib, kitobxon yoshlarni ko'payishiga katta hissa qo'shmoqda.

Kitob mutolaasi insonning ma'naviy kamolotiga yordam beradigan ulkan asosdir. Bugungi kunda internet tarmog'i rivojlanib, zamonaviy texnologiyalar inson hayotining bir bo'lagiga aylanib qolgan bir vaziyatda yoshlarni kitobxonlikka chorchash bir muncha mushkul ish bo'lib qoldi. Lekin inson qalbida kitobxonlikka qiziqish bo'lsa uni kitob o'qishdan hech bir narsa qaytara olmasligini isbotlay olayotgan yoshlar ham oramizda anchagina. Xususan ularning ijtimoiy tarmoqlarada kitobxonlik marafonlari, kitobsevarlar klublari, hozirda ko'plab yoshlarning e'tiborini jalb qilib kelmoqda. Ushbu marafonlardan maqsad kitob o'qish, vaqtni samarali boshqarish ko'nikmalarini yoshlar o'rtasida targ'ib qilishdir. Bundan tshqari ushbu marafonlarning yana ham qizg'in borishi maqsadida guruhlar o'rtasida musobaqalar, turli xil

mavzuda, hozirda ko'plab natijaga erishgan, yoshlarga o'rnak bo'la oladigan insonlar bilan ijtimoiy tarmoqda jonli suhbatlar olib boriladi.

Marafon doirasida ma'lum bir kitob tanlab olinib, uni hafta mobaynida o'qib o'rganiladi va undan olingan xulosalar taqriz qilib yoziladi. Ushbu taqriz yozish ham musobaqa tarzida olib borilib eng yaxshi taqriz egalari taqdirlanadilar. Bundan tashqari o'qilgan kitoblar kitobxon guruhdoshlar o'rtasida muhokama qilinadi. O'qigan kitob haqida kimdur bilan suhbat qilish ayniqsa kitobxonga o'zgacha zavq beradi. Marafonda bo'ladigan ilmiy suhbatlar yoshlarni ilmga, izlanishga rag'batini oshirib, ularni o'z vaqtlaridan unumli foydalanishiga ko'makchi bo'ladi, Ko'plab foydali va kerakli ma'lumotlar olishadi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi bu kabi loyihalar hozirda ko'pchilikni qiziqtirib kelmoqda, chunki ushbu kitobxonlar doirasida nafaqat yoshlarni balki, yoshi kattalar hamda o'rta yoshli ishtirokchilarni ham ko'rishingiz mumkin. Ayniqsa kitobxonlarning aksriyati yosh bolali onalar bo'lib, bu kelajak avlodlarimizni ham kitobxon, ilmiy, salohiyatli qilib tarbiya qila oladigan onalarning ko'payayotganligining yaqqol dalili desam mubolag'a bo'lmaydi.

Bugungi kunda kitobxonlik targ'iboti bilan shug'ullanayotgan bir qancha ijtimoiy tarmoqlarda kanallar mavjud bo'lib, ulardan biri "Nega o'zgardim" loyihasidir. Ushbu loyiha Telegram tarmog'ida "Kitobsevar millat" umummilliy g'oyasini ro'yobga chiqarish shiori ostida o'z faoliyatini amalga oshirib kelmoqda. "Nega o'zgardim" loyihasi tomonidan tashkillashtirilgan "O'ZGARAMIZ kitoblar bilan" marafonining bir mavsumida 21 kun ichida bir-biridan qiziq bo'lgan uchta kitob o'qiladi, ahil va kitobsevar jamoa bilan ushbu kitoblar yuzasidan suhbatlar olib boriladi. O'z sohasining professional bo'lgan ustozlar bilan suhbatlar olib boriladi.

Bu kabi yana bir loyiha: "Irmoqlar" loyihasi faoliyatini ijtimoiy tarmoqlarda kuzatishingiz mumkin. Ushbu loyiha doirasida kitobxonlar hafta mobaynida bir kitobni mutolaa qilishadi va ushbu kitobdan olgan bilimlarini, sinovdan o'tkazish maqsadida shu kitob yuzasida insholar tanlovida qatnashish imkoniyatiga ega bo'ladilar. G'oliblar taqdirlanib, e'tirof etiladilar.

Peshqadam karvoni loyihasida ham kitobxonlikni rivojlantirish yo'nalishi mavjud bo'lib, bu yo'nalishda homma qatnashishi mumkin. Ushbu yo'nalishning maqsadi kitobxonlikni rivoltantirish bo'lib, unda turli seminar treninglar, yozuvchilar bilan uchrashuvlar yo'lga qo'yilgan bo'lib, keng ommani kitobxonlikka chorlab qolishadi. Turli xil video roliklar orqali kitobxonlik targ'ib qilinadi.

Bulardan tashqari ijtimoiy tarmoqlarda turli xil kitob bloggerlari o'z ish faoliyatlarini yuritib kelishmoqda. Kitob bloggerlarining asosiy maqsadi o'qigan kitoblarining taqrizlari bilan bo'lishadi, o'zlarining kanallarida electron kitoblar bilan bo'lishadi. Bunday bloggerlarning ham kuzatuvchilari ko'pchilikni tashkil qilishi, kitobxonlikni keng tarqalayotganining yaqqol dalili desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ijtimoiy tarmoqlardan ham juda ko'p manfaat olsa bo'ladi aslida, faqatgina ongimizga ayrim filtrlarni qo'ya olsak bo'ldi. Vaqtini behuda srflovchi qisqa videolarni ko'rmasdan, keraksiz kanal va guruhlarni ro'yxatingizdan o'chirib tashlash sizni ancha samarali ishlashga undaydi aslida.

Bu borada bizga yana bir ko'makchi bizda, axborot olish madaniyatining rivojlangan bo'lishidir. Axborot olish madaniyati insonning turli ijodiy qobiliyatlari mahsuli bo'lib bu quyidagi aspektlarda namoyon bo'ladi:

- texnik vositalardan foydalanishda ma'lum bir ko'nikmalarda (Telefondan tortib shaxsiy kompyuter va ijtimoiy tarmoqlargacha);

- asosini turli dasturiy mahsulotlar tashkil etuvchi kompyuter axborot texnologiyasi faoliyatidan foydalana bilish mahoratida;
 - turli axborot bilan ishlay bilish faoliyatida;
 - o'z ish faoliyati sohasida axborot oqimi xususiyatlari borasida tasavvurga ega bo'lishda.
- Axborot olish madaniyatiga ega bo'lish - bu har bir inson o'zligini anglashida o'z o'rni va vazifasini bilishda katta ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlarning keng ko'lamda ochib berish jarayonidir. Ta'lim axborot olish madaniyatini shakillantirishda katta ahamiyatga ega bo'lib, ta'lim olish tizimidagi rivojlanish va har bir kishini samarali tarzda axborot va axborot vositalaridan foydalana bilishi jamiyat yuksalishiga sabab bo'ladi.

References:

1. Umarov A.A. Mamlakat kutubxonachiligi islohotlar yo'lida: muammolar va yechimlar// Fan, ta'lim, madaniyat va biznes sohalarida internet va kutubxona-axborot resurslaridan foydalanish. To'rtinchi xalqaro konferensiya materiallari. - T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi.-2006.- 10-15 b.
2. Karimov U. Kutubxona texnologiyalarini avtomatlashtirish: muammolar, yechimlar// INFOCOM.UZ - 2006. - № 12.- T.: 31-34 b.
3. Karimov U. Elektron bibliografik resurslar yaratish texnologiyasi va manbalari. T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti, 2006 . - 194 b.